



1991-yildan
chiqa boshlagan

2023-yil. 4-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

ABDULLA QODIRIY TAVALLUDINING 129 YILLIGIGA

Ushbu sonda



TAHLIL

“Boburnoma”da shimoliy
Tojikiston toponimlarining
ifodalanishi

12
bet



TILSHUNOSLIK

Hyponymic relationship in
words in semantics

25
bet



TADQIQOT

Ishtixon va Payariq
tumanlaridagi
toponegizlarning lingvistik
xususiyatlari

34
bet



НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

Текст как отражение
культурных ценностей

64
bet



O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2014-yil
19-dekabrda 0055-raqam
bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2023-yil.
4-son.**

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnal dan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnal da nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2023.30.04. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Ariani» garnituras. 10. 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma Adadi 4000 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Yorqinjon Odilov. Olamning lisoniy manzarasi va til idioetnikligi3

METODIK TAVSIYA

Klaraxon Mavlonova. Ona tili darslarida matn tahririga oid majmuaviy ish turlari5

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Xolida G'ulomova. Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi7

Gulnaz Jarilkasimova. Kursantlarning axborot-metodik ta'minot bo'yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi9

TAHLIL

Zilola Rozikova. Effective methods of teaching English to young children10

Mo'minjon Turdibekov. "Boburnoma" da shimoliy Tojikiston toponimlarining ifodalanishi12

Firuz Murodova. O'zbek hujjatligi tarixi14

Hoshimjon Ahmedov. Navoiy ijodida tasavvuf g'oya va timsollari talqini16

Elmurod Nasrullayev, Marhamat Bakiyeva. "Saddi Iskandariy" dostoni olim talqinida18

Dilnoza Buronova. Ernest Seton-Tompson hayoti va badiiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari20

Dilshod Nasriddinov, Mirzakhoja Jobborov. Fantasy and reality in literature21

TILSHUNOSLIK

Kamola Anorboyeva. Importance of listening and note-taking in students' language learning process24

Nasiba Jumayeva. Hyponymic relationship in words in semantics25

TARJIMASHUNOSLIK

Saida Sultanova. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarjimonning kasbiy muloqoti malakalarini shakllantirish masalasi26

MULOHAZA

Muqaddas To'raboyeva. Ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyaning mazmun va mohiyati28

TADQIQOT

Saodat Kambarova. O'quvchilarning obrazli va konseptual tafakkurini rivojlantirishda tizimli yondashuvlar30

Otabek Xidirov. O'zbek tili korpusida so'z birikmalarini sintaktik tglash32

Oybek Gadayev. Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponimlarning lingvistik xususiyatlari34

Shahnozaxon Komolova. Nemis va o'zbek tillaridagi paremiyalarda ziddikni ifodalovchi tushunchalar va ularning lingvosotsiomadaniy xususiyatlari36

Gulruh Bahodirova. Sohaviy leksika tadqiqi38

Zarina Abdullayeva. Perifraza klassifikatsiyasi olimlar talqinida40

KICHIK TADQIQOT

Yorqin Nurmatov. Xitoy tabobati tibbiy atamallari tarjimasidagi ba'zi muammolar42

Aziza Zaripova. Chet tillarni o'qitishda innovatsion usullar43

Durdona Mahkamova. O'zbek terminologiyasi taraqqiyotida jadidlarning o'rni45

Laylo Doniyorova. Role of multimedia in Russian lessons in primary schools47

Nigora Erkinova. She'riyatda xalqona motiv va an'analar ifodasi48

METODIKA. ОПЫТ

Zulxumor Isakjanova, Моника Шаряева, Татьяна Шорина. В.Сутеев, «Как я ловил рыбу»49

ИСПОЛЬЗУЙ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Матлюба Мирханова. Понимание спонтанной речи53

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Азиза Бедилова, Саodat Исмаилова, Нилуфар Бедилова. Экономическая терминология – объект исследований учёных-лингвистов56

Альфия Галямова. Англиязычная лексика в современной лингвистике58

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Беккенбауэр Реймов, Айлана Бекмуратова. Этапы работы с английскими фразеологизмами, характеризующими эмоциональное состояние «fear» (страх), на практических занятиях в вузе60

Зебинисо Муродуллоева. Современные требования к использованию мультимедийных платформ в преподавании английского языка61

НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

Лола Кабулова, Салават Атажанов. Проблемы переводческих трансформаций при передаче каракалпакских реалий на русский язык63

Гулихон Акрамова. Текст как отражение культурных ценностей64

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Ольга Шевцова. Репрезентация понятийной категории «количество» в современном русском языке66

Наргиза Алимова. Преподавание мировой литературы для филологического направления69

Наргиза Мадаминова. Структурные особенности композитов-существительных в творчестве Н.С.Гумилёва и А.А.Ахматовой71

Эльдар Гиздулин. Атрибуты постапокалиптической пандемийной среды в романе73

Эмили Сент-Джон Мандел «Станция Одиннадцать»73

Шахло Алимарданова. О соотношении явлений вариативности и языковой дифференциации76

ВНЕАУДИТОРНАЯ РАБОТА

Лейла Тагиева. Изучаем наследие самородка национальной литературы78

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

1. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С.324.
2. Ayrim hollardagina boshqa til ona tilining o'rnini egallab, kishi aqliy-ruhiy faoliyatida asosiy vositaga aylansa va natijada ona tili unutilsa milliy tafakkur tarzi o'zgarishi mumkin.
3. Даниленко В.П. Введение в языкознание. – М.: Флинта, 2010. – С.26.
4. Гумбольдт В. Кўрсатилган асар.
5. Даниленко В.П. Кўрсатилган асар, 26-бет.
6. Гипотезанинг кучли ва кучсиз версиялари тушунчаси, гипотеза муаллифларининг кейинроқ ёзган асарларида тилнинг ролини тушунтиришда бирмунча мувозанат сақланган, тилга инсон ҳаёти ва фаолиятида ягона, бирламчи билиш шакли деб қаралмаган, балки тафаккурнинг билишдаги иштирокига диққат қаратилган ўринлар борлиги билан изоҳланади.
7. Муаллифлар жамоаси. Новое в лингвистике. – М., 1961.
8. Бу ҳақда қаранг: Радченко О.А. Язык как мирозидание: лингвофилософская концепция неогумбольдтианства. Изд. 3-е, стереотипное. – М.: КомКнига, 2006. – С.234.
9. Бу ҳақда батафсил қаранг: Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017.
10. Бу ҳақда батафсил қаранг: Куликова И.П., Салмина Д.В. Введение в языкознание. – М.: Юрайт, 2013. – С.
11. Бу ҳақда батафсил қаранг: Радченко О.В. Кўрсатилган асар.
12. Бу ҳақда батафсил қаранг: Радченко О.В. Кўрсатилган асар, 235-бет.
13. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. – М.: Либроком, 2009. – С.77-105.
14. Радченко О.А. Кўрсатилган асар, 235-бет.
15. Касевич В.Б. Буддизм. Картина мира. Язык. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 1996. – С.179.
16. Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар, 143-бет.
17. Касевич В.Б. Кўрсатилган асар, 77-бет.
18. Куликова И.П., Салмина Д.В. Кўрсатилган асар, 447-бет.
19. Куликова И.П., Салмина Д.В. Кўрсатилган асар, 447-бет.

Методик тавсия



Klaraxon MAVLONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

ONA TILI DARSLARIDA MATN TAHRIRIGA OID MAJMUAVIY ISH TURLARI

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan darsliklarda mashqlar va mashq uchun berilgan materialdan keyin yana bir nechta topshiriq berilmoqda. Bu topshiriqlar matn tuzilishining har bir komponenti nimalarni o'z ichiga olishidan kelib chiqib kompleks tavsif taqozo etadi. Matn tuzilishiga doir o'rganilgan qoidalarni amaliy faoliyatda qo'llash matndan til birligini ko'ra bilish va anglashdan tortib to matn yaratish hamda tuzilgan matnga baho berish, kamchiliklarni (xatolarni) tuzatish (tahrir qilish)gacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgani bilan tor doiradagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan chegaralanadi. Ma'lum vaqtga kelib matn tuzilishiga doir bir necha komponentni birlashtirib majmuaviy tahlillarni amalga oshirish zaruriyati tug'iladi.

Majmuaviy tahlil mashqlarini quyidagi komponentlar bilan bog'lab tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- 1) reja bilan bog'liq masalalar;
- 2) matnni tashkiliy-texnik jihatdan kompleks tahlil qilish;
- 3) matnda gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarni

aniqlash va izohlash;

4) juft-juft qilib berilgan undalmali, kirish so'zli, kiritmali, modal so'zli gaplarni ohangiga e'tibor bergan holda o'qish va tahlil qilish;

5) ko'chirma gapli maqol (hikmatli so'z, hadis, she'riy misralar) bo'lgan ko'chirma gaplarni tahlil qilish;

6) kichik mavzuning ochib berilish izchilligini kompleks tahlil qilish;

7) matn turlarida (rivoya-matn, tasvir-matn, muhokama-matn) abzas qismlarining mazmuniy va grammatik shakllanishini tahlil qilish.

Ona tilini o'qitish metodlarini, xususan, matn tuzilishini o'rganish metodlarini tanlash tasodifiy bo'lmazligi kerak. Bunda asosiy mezon nima o'rgatilishi, tarkibiy komponentlar ustida qanday ish olib borilishi lozimligi, dastlabki tajriba darslari jarayonida qanday xatoliklarga qo'l qo'yilgani, o'quvchilar nutqidagi xatolarning kamaygan yoki kamaymaganligi, yakuniy natijalar nimalarda o'z ifodasini topishi kerakligi, nazoratni qay tarzda olib borish mumkinligi kabi

masalalar ham nazarda tutilishi zarur. Kichik mavzularni yoritishda ham bir butun matnga (inshoga) qo'yiladigan talablardan kelib chiqiladi.

I.A.Sotova o'quvchini nutqiy nazorat qilish va uning tuzgan matnini takomillashtirishga qaratilgan barqaror motivlarni yuzaga keltirish zarur, degan ma'noda o'quv faoliyatini tashkil qilishning quyidagi tartibini tavsiya qiladi:

- atoqli adiblar, so'z ustalarining qo'lyozma ustida ishlashga doir fikrlarini tahlil qilish;
- yozuvchilarning qoralama va tugallangan matn variantlarini qiyoslash;
- o'quvchilarning matnni tadqiq etishlari jarayonida muammoli savollar berishlari va ularga o'zlari javob qaytarishlariga undaydigan topshiriqlar berish;
- o'quvchilarda yozgan narsalarini boshqalarning tushunishi, buning uchun o'z fikrlarini tushunarli va aniq bayon qilish ko'nikmasini shakllantirish;
- o'z ishlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish; bunda boshqalar o'zlari tuzgan ilk qoralama matnlar bilan yakuniy variantni taqqoslashlari va sifat o'zgarishlarini ko'rsatishlari kerak.

N.I. Jinkin va V.Y. Mamushin bu holatni o'ziga xos psixologik omil ta'siri, deb tushuntiradilar: fikrni bayon qilish ustidagi ishlar tugaganidan tug'ilgan qanoatlanish hissi muallifga yaratilgan matnni tanqidiy baholashga xalaqit beradi, ta'lim oluvchi o'zi o'z xatolarini payqamaydi.

Kuzatishlardan ma'lumki, o'quvchilar o'zlari tuzgan matnni takomillashtirishni istamaydilar, bunga zarurat ham sezmaydilar. Chunki ular o'zlari yo'l qo'ygan matniy xatolarni daf'atan ko'rmaydilar. Shunday ekan, o'quv-amaliy vazifalarni hal etishda tekshirish usullarini qanday qilib topish, yaratilgan matnda, gapda nimaning qanday tekshirish kerak? O'qishning ifodaliligi qaysi asoslarga ko'ra baholash lozim? Imloviy va nutqiy xatolarni qay tarzda tuzatish zarur?

O'quvchi o'zini o'zi nazorat qilishi kerakligini anglab yetsa va bunga qayta-qayta inshonch hosil qilsa, matnni takomillashtirish zarur ekan degan xulosaga keladi. Bunda o'quvchilar bir-birining tuzgan matnini tekshirishi, jamoa bo'lib matnni tahrir qilishini talab etadigan mashqlar samarali yordam beradi. Quyida ana shu komponentlar bilan bog'liq majmuaviy mashqlarga to'xtalamiz.

Reja bilan bog'liq masalalar majmuaviy mashqlardan foydalanish imkonini beradi. Bunday mashqlarda o'quvchilar reja tuzishning maqsadi va vazifalaridan tashqari bosh mavzu asosida nimalar haqida gapirish mumkinligi, mo'ljallangan kichik mavzularni reja moddalarini sifatida nomlash, ushbu kichik mavzularni bosh mavzuni yoritish izchilligidan kelib chiqib joylashtirish masalalarini o'ylashiga to'g'ri keladi.

Majmuaviy tahlil matn bilan bog'liq holda tashkil etilishi mumkin. I.Y. Gasning maqolasida reja tuzishning hayotdagi ahamiyatini ochib beradigan reja ko'rinishidagi topshiriq shartidan namuna keltiriladi: "Quyidagi rejaga tayanib matnlarni tahlil qiling: 1) muloqot vaziyatini, shu vaziyatda ushbu matndan foydalanish mumkin bo'lgan sharoit va

nutq vazifalarini tavsiflab bering; 2) har bir matndagi bayon tavsifini aniqlang; 3) matnda o'z aksini topgan uslubiy aloqmatlarni aytib bering; 4) matn qaysi uslubga tegishli ekanini ko'rsating, ushbu uslubga xos leksik, so'z yasovchi, morfologik va sintaktik vositalarni toping". Bu o'rinda topshiriqlar reja o'mida kelmoqda. O'quvchilar ushbu turdagi mashqlarni bajarish jarayonida hayotda har bir ish reja bilan amalga oshirilishi haqida tushuncha hosil qiladilar.

Boshlang'ich sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida izchilligi xato berilgan reja moddalarini tuzatish, moddalar oldiga tartib raqamlarini qo'yib chiqish talab etiladigan mashqlar havola qilingan.

Qisman 3- va 4-sinflarda, asosan 5-sinfdan boshlab bunday mashqlardan majmuaviy tahlil o'tkazishda foydalanish lozim.

6-sinf "Ona tili" darsligida "Ko'z nurini asrang" mavzusi doirasida matn qismlari yuzasidan berilgan quyidagi mashq asosida majmuaviy tahlil o'tkazish maqsadga muvofiqdir:

Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsun.

Matndagi xatboshilar bilan kichik mavzularni moslashtirib yozing. Xatboshilarni kirish, asosiy qism va xulosa qismlariga ajrating.

Matnning tashkiliy-texnik jihatlarini kompleks tahlil qilish uchun o'quvchilar tuzgan matnlardan biri tanlanadi. Unda mavzu yoki epigrafi, reja bo'lishi kerak. Bu o'rinda yuqorida keltirilgan jadval yoki rasm andoza vazifasini bajarishi mumkin.

Mashq. Tuzilgan matn bilan tanishing. Mavzu to'g'ri yoki xato yozilganini, epigrafning matn g'oyasiga mos yoki mos emasligini, rejaning izchilligidagi xatoni aniqlang va izohlang.

Matnda gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlab, izohlash talab etiladigan mashq gaplarning o'zaro bog'lanish vositalarini matnda ko'ra olish, farqlay bilish, ma'no-mazmunini izohlash tavsifida tashkil etiladi. Shu maqsadda matn tanlanadi.

Tahlil uchun matn tanlashda ma'lum talablarga rioya qilinadi. G.N. Vladimirskeyaning maqolasida juda tavsifli me'yor ko'rsatiladi: "...bunday ma'lumotlarni kiritishda sohalarni qamrab olish kengligi, matnlar qayerdan olinganligi emas, balki matnlarning o'zining emotsionalligi, originalligi, tushunarligi va maroqliligi muhim hisoblanadi".

O'quvchining matn tuzish bilan bog'liq ijod jarayoni fikr-mulohaza yuritish, tasavvurida paydo bo'lgan manzaralarni xotiraga kelgan so'zlar bilan ifodalash, shu jarayonda o'z his-tuyg'ularini, nuqtayi nazarini aks ettirish kabi aqliy, estetik, kommunikativ faoliyat tarzida kechadi. Matn yaratish va uni tahrir qilish jarayonining eng qiyin tomonlari fikrni izchil rivojlantirishdan tashqari, kerakli so'zni tez va to'g'ri eslay olish, gap tuzishda so'z topish tufayli yuzaga keladigan to'xtamlarni mashqlar orqali bartaraf etish, gaplarni to'g'ri tuzish hamda bog'lanishlarini ta'minlash kabi holatlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сотова И.А. Мотивация самоконтроля над качеством письменного текста / Русский язык в школе, 2007, № 4.
2. Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
3. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr / Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.